

“QISSASI RABG’UZIY” ASARINING G’OYAVIY BADIY TAHLILI

Abdujalilova Muxtasar Yoqubjon qizi

Andijon Davlat Pedagogika instituti

Filologiya fakulteti I bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Nosiruddin Rabguziyning "Qissasi Rabguziy" asarining yozilish tarixi, asarning badiiy g'oyaviy tahlili va unda keltirilgan payg'ambarlar haqida ma'lumotlar beriladi.

Annotation: This article provides information about the history of the writing of Nasiruddin Rabuzi's "Qissasi Rabuzi", an artistic and ideological analysis of the work, and the prophets mentioned in it.

Аннотация: В статье дается информация об истории написания произведения Насируддина Рабузи «Киссаси Рабузи», дается художественный и идеологический анализ произведения, а также упоминаются в нем пророки.

Kalit sòzlar: Payg'ambarlar haqidagi qissalar, "Qissasi Rabguziy" asarining Nosiruddin Toqboğağa bag'ishlanganligi, asarning yozilish uslubi va janrlari.

Keywords: Stories about the prophets, the dedication of the work "The Story of Rabuzi" to Nasiruddin Toqboja, the style and genres of the work.

Ключевые слова: Рассказы о пророках, посвящение произведения «История Рабузи» Насируддину Токбодже, стиль и жанры произведения.

Ushbu maqolada Qur'oni Karimda payg'ambarlar haqidagi qissalarning keltirilishi va qissalar ta'sirida yangi asarlar yaratilishi, "Qissasi Rabguziy" asarining o'ziga xos xususiyatlari, qissalar tahlili va janrlari borasida sòz boradi.

Islom dinining muqaddas kitobi Qur'oni Karim nozil bòlishi bilan u musulmon insonlarga kòplab o'tmish haqiqatlarini ochib berdi. Unda payg'ambarimiz Muhammad Mustafo sallollohu alayhi vassallamdan avval ham kòplab payg'ambarlar dunyoga kelgani, ular ham insonlarni ilmga, yaxshilikka chorlagani va ular bilan birga bòlmagan qavmlarning boshiga tushgan musibatlar haqida sòz boradi. Qur'oni Karim nozil bòlgach payg'ambarlar tarixi haqida turli xil qissalar yaratilgan bòlib, ularning eng ishonchlisi Nosiruddin Rabguziyning "Qissasi Rabguziy" asari hisoblanadi. Asar turkiy tilda yozilgan bòlib, payg'ambarlar haqidagi kòplab ishonchli qissalarni o'z ichiga oladi.

Maqolada Rabguziyning "Qissasi Rabguziy" asarining tahliliga tòxtalib o'tiladi. Bundan tashqari ushbu asar tòğrisida olib borilgan tadqiqotlar, ilmiy ishlar, maqolalar va asarlardan foydalanildi.

Rabguziy Turkiy xalqlarning taniqli shoiri hisoblanadi. Uning bizga hijriy 709 -yil, milodiy 1309- 1310 -yillarda yozgan "Qissasi Rabguziy" asari yetib kelgan. Asar

mo'gul beklaridan bòlgan Nosiruddin Tòqbòga "Òqimaqga keraklik ,òrganmakka yaroqliq " payg'ambarlar qissalaridan iborat asar yozib berishi iltimosiga binoan yozilgan. Asar jami 72 qissa va 600 misra she'rdan iborat, an'aviy hamd va na't qismlaridan boshlanadi. Asarda 33 payg'ambarlar: Shish, Muso, Iso, Sulaymon, Nuh, Dovud, Muhammad va Xorut, Morut kabi farishtalar, Qobil va Hobil kabi shaxslar, 4 xalifa ,7 tarixiy shaxslar keltirib o'tilgan. Asarga Qur'oni Karimdagi ayrim manbalar, islomga oid boshqa kitoblardan, Abu Ishoq Nishopuriyning "Qissas ul - anbiyo" asaridan ba'zi ma'lumotlar asos qilib olingan. Bundan tashqari Rabguziy o'z asarini yaratishdan avval o'zigacha bòlgan adiblarning payg'ambarlar haqidagi qissalarini o'rganib, ulardan o'ziga kerakli xulosalar chiqaradi, ular qilgan xato va kamchiliklarni o'z asarida takrorlamaslikka harakat qiladi. Uning asarining yana bir ustun tomoni avvallari payg'ambarlar haqidagi qissalar arab va fors tilida bitilgan bòlsa, Rabguziy asarini turkiy tilda yaratadi. Shu bois ham shoir o'z asarini dur- u gavharga qiyos etadi. Asar tarkibidagi qissalar hajmi turlicha: Masalan, Yusuf haqidagi qissalar yuz sahiga yetsa, Lut haqidagi qissa bir necha sahifani tashkil etadi xolos. Ammo asardagi qissalar real hayot voqealari bilan bogliq. Asardan ma'rifiy - didaktik hikoyatlar ham o'rin olgan. Ushbu asar o'zbek adabiyotida badiiy Nasr yodgorligining yetuk namunasi, XIII-XIV asrlar eski o'zbek adabiy tilini o'rganishda asosiy manba hisoblanadi.

Asar muallifi- Nosiruddin Burhoniddin o'gli Rabguziy Xorazmning Rabatoguz nomli joyida tavallud topgan, turkiy til shoiri hisoblanadi. U Sharq xalqlari o'g'zaki ijodini, rivoyatlar va avliyolar -anbiyolar to'g'risidagi qissalarni puxta o'rgangan. Bu hikoyat va qissalar ta'sirida o'zi ham hikoya ,qissalar yoza boshlagan. Turkiy xalqlar adabiyotida birinchilardan bòlib nasrda rivoyatlardan hikoyat ,hikoyatlardan qissalar yaratishni boshlab bergan.

Asarning payg'ambarimiz Muhammad Mustafo sallollohu alayhi vassallamga bag'ishlangan qismiga to'xtaladigan bòlsak, payg'ambarimiz tug'ilganlarida orqalarida muhr-u nubuvvatning nishonasi borligi, sochlari taralgan, tirnoqlari olingan, sunnat qilingan, kòzlariga surma surtilgan ekanligi haqida yozilgan. Bu mòjizani kòrgan hamma xushnud bòladi, oq bulut gòdakni osmonga olib chiqib, muattar narsalar sepib, rahmat suviga chòmlitirib, jannat xillalariga o'rab, onalari qòllariga olib kelib berdi. Shu kecha jamiki butparastlarning butlari yuztuban yiqildi. Otashparastlarning o'tlari sòndi. Bu kechada barcha jin-u shayotin jam bòlib, shaytonning oldiga kelib sòradi: "Bu ne hol, qanday kishi tavallud topdi?" Shayton: bu gòdak oxirgi zamon payg'ambari Muhammad Mustafo sallollohu alayhi vassallamdir. Uning shariati barcha dinlarni mansuh qiladi. Butparast, kofirlar bir marta "La ilaha ilalloh , Muhammadur Rosulluloh", desa, barcha gunohlari kechiriladi. Qiyomatda yuz minglab odamlarni shafolat qiladi", dedi. asarning katta qismi payg'ambarimizning hayotlariga bag'ishlangan qissalardan iborat.

Bundan tashqari "Qissai Qobil va Hobil"da tasvirlanishicha, Qobil bilan Iqlimo, Hobil bilan Abudo tugʻiladi. Iqlimo go'zal. Abudo ko'rksiz edi. Qobilga Abudo beriladigan bo'ldi, u ko'nmadi. Odam ularga qurbonlik qilishni, kimning qurbonligi qabul bo'lsa, Iqlimo berilishini aytdi. Hobilning qo'yi qabul bo'ldi. Qobil tosh bilan urib Hobilni o'ldirdi. Qarg'alarga qarab, Hobilni erga qo'ydi. Odam ko'mish shundan qoldi.

Asarda odamning, yer yuzi, ko'k, jin, farishtalarning yaratilishidan boshlab ma'lumotlar keltiriladi. Mana olamning yaratilishi haqidagi xabar: «Xabarda andog' kelur: Yakshanba kun ko'klarni yarattı, dushanba kun oyni, kunni, yulduzlarni yarattı, falak ichinda turitti, seshanba kun olam xalqinda qush-qurtlarni, farishtalarni yarattı, chahorshanba kun suvlarni yarattı, ellarni, bulutlarni chiqardi, yig'ochlarni, o't-emlarni yarattı, undurdi. Ro'zilarni ulashturdi. Payshanba kun ujmox, tamuo'ni, rahmat va azob farishtalarni yarattı, hurlarni yarattı. Azina kun odamni yarattı. Shanba kun narsa yaratmadi».

Odamning yaratilishi haqida ham gap boradi. Jabroil, Isrofil, Mekoil tuproq olib kelishga buyuriladi. Ular qilmagan ishni Azroil bajaradi. Shu uchun ham Jonzotlar jonini olish unga topshiriladi. Odamni tuproqdan yaratadi. Tog', Dengiz, Ko'k ulardan yaratishni talab qilishadi. Tuproq jim turgani bois undan yaratiladi.

XULOSA

"QISSASI RABGUZIY" asariga faqat diniy ruhdagi asar sifatida qaramasligimiz lozim. U insoniyat yaratilganidan to shu kungacha bòlgan davrlaridan sòzlaydi. Shu bois ham ushbu asarni asrab- avaylab keyingi avlodlarimizga ham yetkazishimiz, ularni ham bunday bebaho ,nodir asardan bahramand etishimiz kerak. Shu maqsadda asarning XV asrdagi qòlyozmasi Londonda Britaniya muzeyida ,XVI asrda kòchirilgan nusxasi Sankt-Peterburgda, XIX asrda kòchirilgan qòlyozmasi Òzbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanib kelinmoqda. XIX asrning II yarmi va XX asrning boshlarida Toshkent, Qozon shaharlarida bir necha marta nashr etilgan. Asarning to'la matni ilk marta rus turkiyshunos olimi N. Ilminskiy tomonidan 1859 yili Qozon shahrida e'lon qilingan. Ushbu asar Radlov, Tomsen, Melioranskiy, Malov, Kononov, Bosim Atalay kabi xorijiy turkiyshunos olimlar, Fitrat, N. Mallaev, T. Fafurjonova, I. Ostonaqulov kabi o'zbek olimlari tomonidan tadqiq qilingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA SAYTLAR

1. Rabg'uziy. Qissasi Rabg'uziy. "Yozuvchi", 1-
2. 2-kitob, T., 1990-91.
3. O'zbek adabiyoti tarixi. Ak.nashr. 5 tomlik 1-tom, 1977.
4. N.Mallaev. O'zbek adabiyoti tarixi. 1-kitob, 1969.
5. Fozilov E. Rabg'uziy va uning "Qissasi Rabg'uziy" asari. 1-kitob, 1990.

Internet saytlari:

1. kh-davron.uz
2. gujum.uz

